

**Jurayev Azizbek Ibroximjon o'g'li**  
Andijon mashinasozlik instituti assistenti

---

## **O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi. Fuqarolik jamiyati konsepsiyasi, fuqarolik jamiyati konsepsiyasi rivojida ijtimoiy siyosat tushunchasi va ijtimoiy adolat fenomenlari nazariy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Fuqarolik jamiyati, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy adolat, fuqarolik jamiyati konsepsiyasi, ijtimoiy adolat fenomeni, ijtimoiy himoya va ijtimoiy xavfsizlik, huquqiy davlat, demokratiya.

---

### **KIRISH**

Fuqarolik jamiyati – insoniyat sivilizasiyasining nodir kashfiyoti. U yuksak madaniyatga asoslangan demokratik taraqqiyotning oliy shakli bo'lib, o'ziga xos ijtimoiy erkin makondir. Bu makonda odamlar bir-biridan va davlatdan mustaqil holda o'zaro hamkorlikda aloqada bo'lishadi. Fuqarolik jamiyatining asosi bu – tamaddunlashgan, faoliyatda ongli va erkin, to'laqonli huquqqa ega individdir. Demak, jamiyat mohiyati va sifati, eng avvalo, unda yashovchi shaxslarning teran insoniy fazilatlariga – komil madaniyatiga bog'liq. Ana shu tariqa fuqarolik jamiyatining shakllanishi bevosita shaxsning individual ozodligi va erkinligiga, qadr-qimmatiga bog'liq.

Gap shundaki, jamiyat turli individlarning oddiy majmui, jamoasi emas. Jamiyat – murakkab ijtimoiy organizm. U odamlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari mahsuli. Uldar hayoti, eng avvalo, ishlab chiqarish, turmush farovonligini ta'minlovchi iste'mol buyumlari va ularning o'zaro almashinuvi bilan bog'liq muayyan mushtarak tashkilot – institutidir.

Jamiyat – oilaviy qavm-qarindoshlik, ijtimoiy guruh va qatlamlar, sinfiy munosabatlar aloqalaridan iborat murakkab dinamik tizimdir.

Boshqacha aytganda, jamiyat biologik qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar ustuvor bo'lgan individlarning mushtarakligi, birligidir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har qanday huquqiy-demokratik davlatni jamiyatda fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan fuqarolik jamiyatini jamiyat rivojining asosiy omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy-demokratik davlatchilikni shakllantirish har qaysi davlat o'z oldiga qo'ygan oliy maqsad ekanligini inobatga olib, ushbu jarayon ancha uzoq muddat talab qilishini aytish mumkin. Aynan ijtimoiy adolat va ijtimoiy odil siyosatning shakllanishi ham fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi. Fuqarolik jamiyatining liberal an'ana g'oyasi umuman olganda yangi narsa emas. Ushbu tushuncha tarixan talabchan va eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib, fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar mumtoz ingliz liberalizmidayoq ishlab chiqilgan. Fuqarolik jamiyati konsepsiyasi va uning rivojida ijtimoiy siyosat va ijtimoiy adolat fenomenlarining dolzarbligi shundaki, fuqarolik jamiyati tushunchasining tub ildizlari aynan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy adolat tushunchalari bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi, ijtimoiy adolat va siyosat tushunchasi fuqarolik jamiyati konsepsiyasining belgilaridan bo'lib

hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. Qolaversa, fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolar uni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxs, uning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va hokazolarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

Fuqarolik jamiyatini xalqaro tajribalar va milliy an'analar asosida shakllantirish inson erkinligi va huquqlarini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida shakllantirish inson taraqqiyoti uchun eng zaruriy omildir. Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasiga tavsif berish, uning mohiyatini yanada yaqqol ko'rsatadi. Fuqarolik jamiyati – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli va insonga, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi qolaversa, inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'ppartiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqeyi baland bo'lgan ijtimoiy tuzumdir. So'nggi yillarda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, unda ijtimoiy siyosat va ijtimoiy adolat tushunchalari va uning ahamiyatini oshirish borasida ko'plab monografiyalar, maqolalar chiqarilgan hamda ilmiy ishlar olib borilgan bo'lib, ushbu mavzu har qachon biz ko'zlagan huquqiy-demokratik davlatning bosh masalalaridan biri bo'lib qolaveradi. Kushbakov Kamoliddin Baxromovichning “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma, A.O'tamurodov, M.Qirg'izboyev, T.N.Xojiyevning “Fuqarolik jamiyati” o'quv qo'llanmasi, Sharifxo'jayev M.ning “O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanish”, Utamurodov A.ning “Fuqarolik jamiyati g'oyalar evolyutsiyasi” nomli monografiyasi va xorij olimlaridan Walzer M.ning concept of Civil society, Shchmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and perspectives nomli ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ta'kidlangan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g'oya biz qurishni niyat qilgan fuqarolik jamiyatida aynan ijtimoiy adolatning o'rnini ko'rsatib beradi deb ayta olamiz. Yurtimizda fuqarolik jamiyati qurish jadal sur'atlar bilan tobora chuqurlashib borayotgan bir pallada ijtimoiy siyosat va ijtimoiy adolat fenomeni eng ilg'or va ustuvor jihatlardan biri ekanligi ko'p bora isbotlanib kelinmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ham mustaqillikning ilk kunlaridan “Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat” deb ta'kidlagan edilar. Shu o'rinda fuqarolik jamiyati konsepsiyasining rivojlanishida ijtimoiy-siyosiy asosning ahamiyati fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatning mustaqil va suveren ekanligi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatlarning bir-biridan ajratilganligi; fuqarolarning o'z maqsadlarini himoya qilish uchun ma'lum nodavlat tashkilotlarga birlashgan bo'lishi, hokimiyatning uchga bo'linish prinsipi amalda o'z aksini topganligi, hokimiyatlarning turli markazlar, guruhlar yoki shaxslar qo'lida to'planib qolmasligi; siyosiy plyuralizmning mavjudligi; davlat hokimiyati vakolati funksiyalarining asta-sekinlik bilan quyi vakillik organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga berib borilishida ko'rinadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”da fuqarolik jamiyati qurish dasturi sifatida quyidagi vazifalar ilgari surildi: “Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va

samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish. fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish” yo`nalishning ustuvor vazifalarni ta`kidlab o`tdilar.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlarini oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma`naviyat, tartib, davlatchilik tashkil etadi. Bunda hammani va majburiy tartibda mulkdorlarga aylantirish nazarda tutilmaydi - ularning ko`pchiligi buni xohlamaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi lozim. Mulk har doim shaxs va butun jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Immanuel Kantning so'zlariga ko'ra, shaxslarning ahvoli odamlarning bir-biriga nisbatan fuqarolik (status civilis) deb atalsa va ularning majmui o'z a'zolariga - davlat (fuqarolik) deb ataladi. O'z shakli bilan bog'liq holda jamiyatning umumiy manfaati qonuniy holatda bo'lish, u hamdo'stlik yoki jamoaviylikka asoslanishi fuqarolik jamiyati konsepsiyasini shakllantirilishi ta`kidlangan. Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari sifatida iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari, inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e`tirof etish va himoya qilish, hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati, qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi, hokimiyatning uchga bo`linishi va hokimiyatlarning o`zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi, so`z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o`zaro majburiyatlari va burchlari, sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik, odamlarning munosib turmush darajasini ta`minlovchi samarali ijtimoiy siyosat fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayanib faoliyat ko`rsatadi. Aynan fuqarolik jamiyati konsepsiyasining rivojlanishida sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik, odamlarning munosib turmush darajasini ta`minlovchi samarali ijtimoiy siyosat yuritilishi muhim omillardan biri bo`lib hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati o`z a`zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi: u davlatdan mustaqil ravishda vosita va sanksiyalar berishga ega bo`lishi mumkinki, ularning yordamida u individlarning jamoa talablariga rioya qilishlariga majburlashi, fuqarolarning ijtimoiylashuvini va tarbiyalanishini ta`minlanishi mumkin. 2018 yil 4-mayda Prezident Sh.Mirziyoyevning “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo`yicha maslahat kengashi tashkil etildi. Xalqimizning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o`z navbatida, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish, erkinlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda izchil rivojlantirish bilan chambarchas bog`liqdir. Shu ma`noda, keyingi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratik o`zgarishlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyati, ijtimoiy faolligi, umuman, ular faoliyatining samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar ko`rildi. 2021-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida” Farmon qabul qilingan bo`lib, unda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari keltirilgan bo`lib, unga ko`ra kasaba uyushmalarini davlat ro`yxatidan o`tkazishda ularning a`zolari soniga qo`yilgan talabni qayta ko`rib chiqish, kasaba uyushmalari tomonidan kasbiy manfaatlari bilan bog`liq bo`lgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish bo`yicha huquqlarini yanada kengaytirish; Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo`llab-quvvatlash jamoat fondlarini mahalliy budjetdan moliyalashtirishni huquqiy tartibga solish; fuqarolik jamiyati institutlarining axloq kodekslarini ishlab chiqish va tasdiqlash; fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini bevosita tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi qonunosti hujjatlarini yuqori yuridik kuchga ega bo`lgan me`yoriy-huquqiy hujjat shakliga o`tkazish; fuqarolik jamiyati institutlarini ro`yxatdan o`tkazish va xorijiy manbalardan

pul mablag'larini olish bilan bog'liq munosabatlarni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni bekor qilish; Huquq himoyachilari haqidagi deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlarni tahlil qilish, umumlashtirish hamda ular asosida huquq himoyachilari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish; siyosiy partiyalarning rolini oshirish maqsadida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining mahalliy hokimliklardan to'laqonli mustaqilligini ta'minlash kabi fuqarolik jamiyati rivojida ijtimoiy adolat va ijtimoiy siyosat fenomenlarining o'rmini ko'rsatib beruvchi ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yilgan. Farmon doirasida davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirishga bag'ishlangan ishlar ro'yxati ham belgilangan. **XULOSA**

Masalaga xulosa tarzida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiqdir:

- fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolarni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxs, uning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va hokazolarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi;
- fuqarolik jamiyati – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli va insonga, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi qoalversa, inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'ppartiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilmaxilligi ta'minlanadigan hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqeyi baland bo'lgan ijtimoiy tuzum hisoblanadi;
- fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasiga tavsif berish, uning mohiyatini yanada yaqqol ko'rsatadi; • aynan fuqarolik jamiyati konsepsiyasining rivojlanishida sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik, odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat yuritilishi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi;
- keyingi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyati, ijtimoiy faolligi, umuman, ular faoliyatining samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar ko'rilib kelinmoqda.
- Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyatining aholi bandligi va uning real daromadlarini izchil oshirish, jumladan, mehnatga layoqatli aholi qatlami uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat faoliyatining yangi shakl va turlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda;
- fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari sifatida iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rangbarangligi, bozor munosabatlari, inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish, hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati, qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi, hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi, so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari, sinfiy va milliy totuvlik,

ijtimoiy sherikchilik, odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayanib faoliyat ko'rsatadi;

- fuqarolik jamiyati davlatdan fuqarolaming hayoti, sog'lig'i, xavfsizligi va boshqa ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishni talab qilishga haqli hisoblanadi;
- fuqarolik jamiyati uning chegarasi ichida mavjud bo'ladigan davlat fuqarolarining farovonligi va ularning alohida maqsadlariga (agar bu maqsadlar qonunga xilof bo'lmasa) mansub jihatlarni himoya qiladi;
- davlat o'zining tashqi siyosati va mudofaa qudrati, qolaversa to'g'ri yo'natirilgan ijtimoiy siyosati va ijtimoiy adolati bilan fuqarolik jamiyatining yashashini ta'minlaydi.

## **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi Samarqand davlat universiteti psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti fuqarolik jamiyati va milliy g'oya kafedrası "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanidan ma'ruzalar matni.
2. Kushbakov Kamoliddin Baxromovichning "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma.
3. A. O'tamurodov, M.Qirg'izboyev, T.N.Xojiyevning "Fuqarolik jamiyati" o'quv qo'llanmasi. - Toshkent "Mumtoz so'z" 2018 y.
4. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. - T.: Sharq, 2003.
5. Utamuradov A. Fuqarolik jamiyati g'oyalar evolyutsiyasi. Monografiya. - T.: Adabiyot uchqunlari. 2018.
6. Walzer M.ning concept of Civil society - Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society. Providence RI: Berghahn Books. - 1995.
7. Schmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns Hopkins U.P., -1997. - P.239-262.
8. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-23 jildlar. - T.: O'zbekiston, 1996-2016 .
9. Murtazaeva R., Utamuradov A. va boshq. Jamiyat rivojida fuqarolaming o'zini o'zi boshqarish organlar faoliyatini takomillashtirish. Uslubiy qo'llanma. - T.: Turon, 2018.
10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. - T.: O'zbekiston, 2016.